

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IBATOVA NIGORA ISTAMOVNA

**QALAMTASVIR FANINI O'QITISHDA TALABALARING
BADIY-OBRAZLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tasviriy san'at)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук по педагогическим
наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science
degree in Pedagogy**

Ibatova Nigora Istamovna

Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish
metodikasini takomillashtirish3

Ibatova Nigora Istamovna

Совершенствование методики развития художественно-образного мышления
студентов в обучении предмета “Рисунок”23

Ibatova Nigora Istamovna

Improving the methodology of development of students’ artistic-imajinary thinking
skills in teaching the subject of “Drawing”45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IBATOVA NIGORA ISTAMOVNA

**QALAMTASVIR FANINI O'QITISHDA TALABALARNING
BADIY-OBRAZLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tasviriy san'at)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4475 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kamolov Iftixor Baxtiyorovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Yadgarov Nodir Djalolovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xalimov Moxir Karimovich

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «_____» soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, M.Iqbol ko‘chasi, 11 uy. Tel.:(0365)221-29-14; faks: (0365)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, M.Iqbol ko‘chasi, 11 uy. Tel.:(0365)221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» kuni tarqatildi.

(2025 yil «_____» dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

S.Q.Qahhorov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

F.X.Xazratov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

H.O.Jo‘rayev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon ta’lim taraqqiyotining hozirgi darajasi jamiyatni intellektuallashtirishga asoslangan bo‘lib, innovatsion ta’lim jarayonida yosh avlodning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishi va badiiy-estetik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan nufuzli ilmiy loyihalarni amalga oshirishning xalqaro tarmoqlari kengaymoqda. Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini investitsiya dasturlari, jahon miqyosidagi texnologik o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, mutaxassislik fanlarini o‘qitishni optimallashtirish, bunda STEAM yo‘nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda¹.

Dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchilarining badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, maktab yoshidan boshlab ta’lim oluvchini kasbga to‘g‘ri yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalari talabalarida badiiy-ijodiy kompetensiyalarni ta’limning turli shakllari orqali takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda “STEAM – ta’lim” dasturi² asosida ta’lim oluvchilarning badiiy-ijodiy kompetensiyasi, dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish, oliy ta’lim muassasasi tasviriy san’at yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida yanada takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, jamiyat talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda nazariy bilimlarga asoslangan amaliy faoliyat uyg‘unligi orqali qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishni ham taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida qalamtasvir fanini o‘qitish jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi isloh qilinib, bu tizimga nisbatan xalqaro innovatsion va texnologik yondashuv imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish, yuqori darajadagi kompetentli o‘qituvchilar tayyorlashga qaratilgan malaka talablari, milliy o‘quv dasturlari hamda ta’limning integratsion shakllarida innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, ularning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini takomillashtirish talab qilinmoqda³. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim tasviriy san’at yo‘nalishida o‘qitiladigan qalamtasvir fanini o‘qitish jarayonida talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirishga mas’uliyat bilan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-son Farmoni.

² “STEAM Rising: Why we need to put the arts into STEM education education”. *Slate*. Qaraldi: 2016-11-10.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni, PF-134-son.

yondashish, ta’lim mazmunini loyihalash, o‘qitishning yangi metodik modellarini ishlab chiqish, tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi muammosini chuqr o‘rganilishini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 12-sentabrdagi PQ-36-son “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari va 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturidan o‘rin olgan “Yangi O‘zbekiston ustozlari” dasturini hayotga tatbiq etish, ta’lim sifatini oshirish hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi rejasи asosida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Respublikamiz olimlaridan talabalarda tasviriy va badiiy tafakkurini, kreativ loyihalashtirish hamda kasbiy kompitentligini takomillashtirish muammolarini S.M.Abduxamidov, B.M.Qurbanova, U.Sh.Xadjiyev, S.S.Azimov, I.B.Kamolov tomonidan tadqiq etilgan. Talabalarda badiiy idrokni rivojlantirish texnologiyasini va didaktik ta’mintoni hamda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasini ishlab chiqishga B.B.Boymetov, A.Sulaymonov, O.M.Jabborova, N.I.Yuldasheva, B.E.Xusanov va boshqalar salmoqli hissa qo‘sqan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan talabalarning badiiy obrazli tafakkurni shakllantirishning metodik, tashkiliy va amaliy shart-sharoitlari D.V.Bragina, Yu.S.Ushaneva, A.V.Gavrikov, N.I.Sadomova, A.Sh.Nurazxon, S.A.Drazdov, I.B.Vetrovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan talabalarning badiiy obrazli tafakkurni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini G.Dore, R.Corrado, K.Hull, L.Hammond larning tadqiqotlarida izlanishlar olib borilgan.

Mazkur muammo yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, aynan qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini

rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmaganligini alohida ta’kidlash zarur.

Tadqiqotning dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2020-2023 yillarga mo‘ljallangan “Qalamtasvir fanini o‘qitishning dolzARB muammo va yechimlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning didaktik ta’minotini aniqlashtirish;

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy - obrazli tafakkur qilish imkoniyatini ilmiy asoslash;

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirish;

talabalarda badiiy-obrazli tafakkurning rivojlanganlik tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo‘lib, unda Buxoro davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti, Termiz davlat pedagogika institutining jami 236 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqot predmeti qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarining badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari: tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, suhbat, anketa, test, pedagogik-psixologik tahlil, pedagogik eksperiment, matematik-statistik metod hamda natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning didaktik ta’minoti tasviriy san’atni o‘qitishning innovatsion – integrativ yondashuvga asoslangan hissiyotni ifodalash, mavzuga ijodiy kirishish usullaridan foydalanish orqali ularning metaforik va simvolik fikrlash darajasini o‘rganish asosida aniqlashtirilgan;

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy - obrazli tafakkur qilish imkoniyati ijodkorlik faoliyatining optimal o‘sishi, virtual muhitda hayoliy borliq hodisalarini vizual va hissiy idrok etishni ta’minlovchi badiiy ijodda mo‘ljal olishga o‘rgatuvchi mobil ilovalar (“akademik sayr”, “personal galereya”) ni motivatsion muhitda qo’llash natijadorligini dinamik baholash orqali ilmiy asoslangan;

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning didaktik modeli tabiat va ta’lim integratsiyasini ta’minlash asosida tabiat manzaralaridan olingan kompozitsiyalarni modellashtirish va ularni

individual uslubda dala amaliyoti jarayonida ifodalashga yo‘naltirilgan tamoyillarni belgilash orqali takomillashtirilgan;

talabalarda badiiy-obrazli tafakkurning rivojlanganlik tizimi qadriyatli, loyihaviy, integratsion, tahliliy ta’lim yondashuvlari asosida egallangan bilimlarni idrok etish, o‘rganish, mushohada, badiiy tahlil qilishga oid baholash mezonlariga yo‘naltirilgan yaratuvchanlik, ijodkorlik, san’atkorlik kabi kasbiy sifatlarga tayyorlikning kompetensiyaviy darajalarini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarining tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarining badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish mazmuni ilmiy jihatdan asoslandi va tarkibiy qismlari tavsiflandi hamda tavsiyalar ishlab chiqildi;

oliy ta’lim muassasalarining tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarining badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga oid “Kompozitsiya” hamda “Amaliy san’at” nomli o‘quv qo‘llanmalari yaratilib amaliyotga tatbiq etilgan;

oliy ta’lim muassasalarining tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishida qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarining badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi: qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishining ilmiy xulosalari asosida olingan materiallarning dissertatsiya muammosi bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy tajribalar, ilmiy-nazariy manbalarning qiyosiy o‘rganilganligi, keng qamrovli sinov natijalarining ilmiy tahlillardan olinganligida o‘z aksini topgan. Shu bilan birga talabaning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishda qalamtasvirning roli, badiiy-obrazli tafakkurni rivojlantirishga oid mavjud nazariyalarni tahlil qilish va qalamtasvir o‘qitish jarayoniga tatbiqan baholash, o‘tmishdagi va hozirgi zamon qalamtasvir o‘qitish metodikalarini tahlil qilish va o‘rganish orqali “tabiat va ta’lim” integratsiyasi asosida kompozitsiyalarni modellashtirishning nazariy asoslari chuqur metodik jarayonga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tayyorlangan materiallardan sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, qalamtasvir fanini o‘qitish jarayonida talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga oid o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda, shuningdek, Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan didaktik modelni takomillashtirish, “Tabiat va ta’lim” integratsiyasini amalga oshirishda baholash mezonlari va vositalarini takomillashtirish, “dala amaliyoti” va “individual uslub namoyishi” kabi elementlarni o‘zaro bog‘lab, ularning qalamtasvir o‘qitish

metodikasini va talabaning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rnini aniq ochib berish istiqbolda mazkur yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning didaktik ta’mnoti tasviriy san’atni o‘qitishning innovatsion – integrativ yondashuvga asoslangan hissiyotni ifodalash, mavzuga ijodiy kirishish usullaridan foydalanish orqali ularning metaforik va simvolik fikrlash darajasini o‘rganish asosida aniqlashtirilgan takliflar “Kompozitsiya” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 14-dekabrdagi 02-02-5405/04-son dalolatnomasi). Natijada, Qalamtasvir fanini o‘qitish orqali talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari muayyan darajada oshgan.

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy - obrazli tafakkur qilish imkoniyati ijodkorlik faoliyatining optimal o‘sishi, virtual muhitda hayoliy borliq hodisalarini vizual va hissiy idrok etishni ta’minlovchi badiiy ijodda mo‘ljal olishga o‘rgatuvchi mobil ilovalar (“akademik sayr”, “shaxsiy galereya”) ni motivatsion muhitda qo‘llash natijadorligini dinamik baholash orqali ilmiy asoslash orqali talabalarning badiiy-obrazli tafakkurining rivojlanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan mezonlar ishlab chiqilgan. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagи 68-755 raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning, pedagogik, psixologik hamda didaktik imkoniyatlaridan foydalanib mashg‘ulotlarning jozibadorligini ta’milanishiga erishilgan;

qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning didaktik modeli tabiat va ta’lim integratsiyasini ta’minalash asosida tabiat manzaralaridan olingan kompozitsiyalarni modellashtirish va ularni individual uslubda dala amaliyoti jarayonida ifodalashga yo‘naltirilgan tamoyillarni belgilash orqali takomillashtirilgan taklif va tavsiyalardan “Buxoro” viloyati telekanalining ”Ijad ustaxonasi” nomli ko‘rsatuv tayyorlangan. (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-yanvardagi 02/02-11-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ko‘rsatuvning ilmiy ommaboplilik darajasi amaliy – ijodiy jarayonlarga asoslanganligi bilan soha vakillarining e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

talabalarda badiiy-obrazli tafakkurning rivojlanganlik tizimi qadriyatli, loyihaviy, integratsion, tahliliy ta’lim yondashuvlari asosida egallangan bilimlarni idrok etish, o‘rganish, mushohada, badiiy tahlil qilishga oid baholash mezonlariga yo‘naltirilgan yaratuvchanlik, ijodkorlik, san’atkorlik kabi kasbiy sifatlarga tayyorlikning kompetensiyaviy darajalarini aniqlash asosida takomillashtirilgan tavsiyalardan “Amaliy san’at” o‘quv qo‘llanmasining mazmunini boyitishda foydalanilgan. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil

31-maydagi 237-240 raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modelidan amaliy dars jarayonlarida samarali foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusini yuzasidan jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya va 1 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta respublika miqiyosida va 4 ta xalqaro miqiyosida tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkiz paragraf, umumiylar, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qalamtasvir fanida badiiy-obrazli tafakkurni rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy konsepsiylar va pedagogik yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida Qalamtasvir fanida badiiy-obrazli tafakkurni shakllantirish jarayonining metodologik mazmuni va pedagogik konsepsiysi, Talabalarda badiiy-obrazli tafakkur shakllanishining nazariy-metodologik, psixologik-motivatsion va estetik-falsafiy asoslari haqida ilmiy o‘rganishlar bayon etilgan. Qalamtasvir ta’limida badiiy-obrazli tafakkur rivojlanishining amaliy holati, tajriba va zamonaviy tendensiyalar tahlilining mavjud holati va uni takomillashtirish yo‘llari mazmuni yoritilgan.

Jumladan qalamtasvir fani barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanib, talabalardan yuqori ijodkorlik va tasavvurni talab qiladi. Shuning uchun mazkur fanni o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlanishish dolzarb pedagogik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Badiiy-obrazli tafakkur” tushunchasi bu, avvalo, badiiy ijod psixologiyasiga, tasviriy san’at o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ma’no jihatdan o‘xshash atamalarning ko‘p qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Ko‘pgina tadqiqotlarda ushbu atamalarning ma’nosini juda yaqin bo‘lishiga qaramay, ular hali ham tub farqlarga ega deb aytish mumkin. Biz tadqiqot kontekstida ongini tasvirlarni shakllantirish qobiliyatini eng ko‘p aks ettiruvchi “badiiy-obrazli” tafakkur atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir degan xulosaga keldik. Demak,

badiiy-obrazli tafakkur tushunchasi aniqroq bo‘lib, ijod jarayonida tasvirlarning namoyon bo‘lish qonuniyatini va uning badiiy ifodali timsolini san’at vositasida izlash imkonini beradi, deyishimiz mumkin.

Badiiy tafakkur tushunchasining mazmuni, mohiyati, pedagogik va psxologik xususiyatlari to‘g‘risidagi yondashuvlarda biz mazkur sohada bevosita tadqiqot olib borgan pedagog va psixolog olimlarning ilmiy xulosalari, metodik tavsiyalari va ta’limiy yondashuvlariga e’tiborni qaratdik. Jumladan, bu borada S.M.Abduxamidov, B.M.Qurbanova, U.Sh.Xadjiyev, I.B.Kamolov, D.V.Bragina, Yu.S.Ushaneva, A.V.Gavrikov, N.I.Sadomova, A.Sh.Nurazzan, S.A.Drazdov, I.B.Vetrova kabilarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Chunki mazkur tadqiqotlarda bevosita bo‘lajak mutaxassislarning badiiy tafakkurini shakllantirish asoslari, yo‘nalishlari va omillari tahlil qilib o‘tilgan. Mazkur masalada pedagog va psixolog olimlarning yakdil fikriga ko‘ra, shaxsning badiiy idroki uning iste’dodi, ijodiy layoqati va malakaviy ko‘nikmalari asosida rivojlanib borishi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuvlarda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining badiiy tafakkur malakasi ixtisoslashtirilgan tushunchaga ega bo‘lib, uning negizini tarbiyaviy va ijodiy fikrlash, intellektual va estetik tasavvur, kreativ yaratuvchanlik xususiyatlari ustuvor bo‘lishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Badiiy-obrazli tafakkur nafaqat san’at asarida tasvirlangan, ifoda etilgan g‘oyani bilib olish, konstruktiv shaklidan oddiy zavqlanish, asarda tasvirlangan vaziyatlardan sentimental hamda hissiy hayajonlanish uchun emas, balki mana shu oddiy ma’naviy holatni mantiqiy tushunish, funksional tahlil qilishga mo‘ljallangan. San’atning tili, uning xususiyatlarini tushunish, idrok etishning muhim tomoni hisoblanadi, faqat mana shundagina muallifning g‘oyasi, uning asarida ifoda etilgan badiiy fikr anglab yetiladi.

Tadqiqotlarimiz jarayonida pedagog olimlarning mavzuga oid qarashlari, badiiy obrazli tafakkur tushunchasiga bergan ta’riflarini umumlashtirgan holda biz badiiy obrazli tafakkur tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifini berishni lozim topdik.

Badiiy-obrazli tafakkur bu kompozitsion yechimning ifodasi, badiiy shakldagi barcha komponentlar mazmunini o‘zida aks ettirgan hissiy ta’sir etish kuchiga ega bo‘lgan obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir.⁴

Badiiy-obrazli tafakkurda bir vaqtda ikki vazifa hal etiladi: nima tasvir etilganligi hamda ifoda etilganligini his etish va tushunish. Buning uchun kompozitsion qurilishning ifodasi va kompozitsion yechimning tasviriy mazmuni hamda badiiy shaklning boshqa komponentlari, jumladan, plastikasi, tuzilishi va ranglar uyg‘unligini tushunib olish kerak bo‘ladi (1-jadvalga qarang).

Badiiy-obrazli tafakkur - muallifning fikricha hissiy ta’sir etuvchi obrazlarning asarda ifoda etilishi, uning hayot bilan mosligi, tomoshabinda qanday hayotiy tuyg‘ularni uyg‘otishini tushunishni talab etib shu bilan birgalikda tasviriy san’at asarlaridagi yangilikni, inson, jamiyat, hayotda noma’lum holatni ochishdir.

⁴ Mualliflik yondashuvi

Tafakkur etuvchi oldida uni hissiy ta'sir etuvchi badiiy obraz - hayotiy model namoyon bo'ladi.

1-jadval

Badiiy-obrazli tafakkurning vazifasi		
His etish	Tushunish	
kompozitsion qurilishning ifodasi	kompozitsion yechimning tasviriy mazmuni	badiiy shakl komponentlari: plastikasi, tuzilishi va ranglar uyg'unligi

Nazariy tahlillar jarayonida talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar va texnologiyalardan ta'lim muhitini tashkil etishda zarur bo'lgan didaktik shart-sharoitlar aniqlandi:

hozirgi zamon fan va texnikasi, ishlab chiqarish taraqqiyoti vazifalari bilan uzviy bog'langan asosiy yo'nalishlarni o'zida aks ettira oladigan bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi;

o'quv materiallarining rivojlangan mamlakatlarni raqamli ta'lim mazmuni va tajribalariga mutanosibligi;

o'quv predmetini o'rganish uchun tanlangan mazmunning vaqt byudjeti doirasiga sig'ishi;

qalamtasvir fanini virtual muhitdan foydalanish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish;

tasviriy san'at ta'lim mazmunini hozirgi va istiqboldagi moddiy texnik vositalar hamda didaktik imkoniyatlariga mos kelishi.

Badiiy-obrazli tafakkur jarayoni asarning aniq bir tuzilishiga moslashadi. U san'atning metodi, turi va janriga hamohang bo'ladi. Lekin har doim tafakkur etuvchi uchun uni yo'naltiruvchi ko'rsatma zarur. Ko'rsatma badiiy mazmuniga kirib borish, badiiy shaklni butun hajmida "o'qib olishi uchun", asar g'oyasini yaxlit tafakkur etishda tafakkur etuvchiga yordam beradi.

Bunda: mazmunida – idrok etish va baholash tomonlari; shaklida – asarning belgili tomonlarini va konstruktiv sifatlari; shakl yaxlitlikda, uning barcha komponentlari o'zaro bog'liqlikda qabul qilinadi; asar mazmuni shaklinining tashkil qilinishi, o'zaro aloqadorlikda anglab yetiladi.

Demak, badiiy-obrazli tafakkur nafaqat san'at tilini tushunish, hayotning obrazli modellarini boshdan kechirish, ularning shaxsiy izohlanishi, balki tafakkur etuvchining tasavvurida ushbu obrazlarni qayta tiklashdan iborat.

Tadqiqot ishida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-obrazli tafakkuriga hissiy-estetik kechinma, mazmun va shaklning birligi, muallif bilan yaqin o'zaro aloqa, asarni tahlil qilish jarayonida faol fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish sifatida qaraladi. Bunda badiiy-obrazli tafakkurning bu pedagogik xususiyatilarini o'rganish zarurligi namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Qalamtasvir fanini o'qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari**" deb nomlanib, ushbu bobda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan

o‘quv faoliyatini tashkil etish mazmuni, axborot-kommunikatsion ta’lim muhitida talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi hamda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimi modeli o‘z aksini topgan.

Tafakkur jarayoni san’at asari tashkil topgan elementlarning ma’lum badiiy tuzilishi ko‘rinishida, ya’ni modellashtiriladigan badiiy-obrazli tafakkur jarayonida shu elementlarning o‘zaro munosabatlari va aloqalari yordamida sodir bo‘ladi. Obraz o‘z navbatida san’atning barcha turlarida tasvirlanadigan surat, narsa-buyum, hodisalaridir. Badiiy obraz bo‘lsa hissiy ta’sir kuchiga ega surat bo‘lib, ob’ektiv voqelikning inson ongida aks etishidir.

Demak, hissiy ta’sir kuchiga ega obrazning inson ongida aks etishi badiiy obrazli tafakkur deyiladi.

Badiiy tafakkur bevosita san’at asarlarida tasvirlangan narsa-hodisalar hamda ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan muhim belgilarni tahlil qilish, bog‘liqliklarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, badiiy-obrazli tafakkur jarayoni uchun bilim va amaliyot majburiyligini unutmaslik lozim. U bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchilarning quyidagi qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi:

- a) o‘tkir idrok, uning yaxlitligi;
- b) xotira, jumladan, assotsiativ xotira;
- v) moslashuvchan tafakkur, uning asosliligi va mantiqiyligi;
- g) san’at asarlarining badiiy-estetik tomonlarini baholash, yakuniy tahlil qila olish qobiliyati;
- d) mustaqil va erkin tafakkur, uning o‘ziga xosligi va ijodiy yo‘nalganligi.


Badiiy tafakkurga tahlil etilayotgan asarni qismlar va elementlarga ajratish sifatida qaraladi. Ushbu jarayonga biz bir hodisaning (badiiy tafakkurning) ikki tomonini (tahlil va sintez qilish), jarayonning muhim tomonlarini ko‘ramiz.

Tafakkur - san’at asarini idrok etish jarayonining dastlabki sintezida - yaxlit, keyin esa ikkilamchi sintezda, ya’ni muallif fikrini umumlashtirish maqsadida tomonlar, qismlar, detallarini (kompozitsiyasi, alohida shakl, rang - tuslari va shu kabilar) tahlil qilishda ifodalanadi. U birinchi navbatda tafakkur - tahlilning har bir bosqichida zarur bo‘ladigan ma’lum bilimlar bilan bog‘liq. Badiiy asarning barcha komponentlari obrazli ishlab chiqiladi, fikrlashning yagona va aniq nazariy talqinini tushunishga yo‘naltiriladi. Hissiy idrok etish – nazariy tafakkur hamda amaliy umumlashtirish sxemasi bo‘yicha sodir bo‘ladi.

Tadqiqotda qalamtasvir fanini o‘qitish jarayonida talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish bosqichlari aniqlandi: virtual muhitda real va xayoliy borliq hodisalarini vizual va hissiy idrok etish orqali badiiy-obrazli tafakkurni rivojlantirish; audial - eshitish orqali tafakkurni shakllantirish; kinestetik - ijodiy faoliyat orqali badiiy-obrazli tafakkurni rivojlantirish.

Qalamtasvir fanini o‘qitish jarayonida talabalarning badiiy - obrazlarni tafakkur qilish imkoniyati, ijodkorlik faoliyatini optimal o‘sishi, virtual muhitda real va hayoliy borliq hodisalarini vizual va hissiy idrok etish imkoniyatiga yo‘naltirilgan badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish metodikasi, badiiy ijodda mo‘ljal olishga o‘rgatuvchi mobil ilovalarni akademik sayr, personal galereya,

o‘quv-majmuaviy jarayonida motivatsion yo‘naltirish muhitida qo‘llash asosida takomillashtirildi. Bunda qalamtasvir fanini o‘qitishda axborot o‘zlashtirishning mantiqiy bosqichlari ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Qalamtasvir fanini o‘qitishda axborot o‘zlashtirishning mantiqiy bosqichlari

Tadqiqotda badiiy va obrazli tafakkur tushunchasiga oydinlik kiritdik va badiiy tafakkur, obrazli tafakkur, tasviriy tafakkur kabi tushunchalar orasidagi semantik farqlarni aniqladik. Bundan tashqari, ular ushbu turdag'i fikrlashning mohiyatini, kasbiy faoliyat turi bo‘yicha uning o‘ziga xosligi va shartliligin olib berdilar va fikrlash turlaridan biri sifatida unga xos bo‘lgan ba‘zi xususiyatlarni, shuningdek, uning boshqa fikrlash turlari bilan aloqasini keltirdilar. Tadqiqot jarayonida quyidagi loyihalardan foydalanildi (2-jadvalga qarang).

2-jadvalda keltirilgan qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalardan foydalanish asosida yangi g‘oyalar bilan tajriba o‘tkazishga va o‘ziga xos badiiy uslubni rivojlantirishga undaydigan qo‘llab-quvvatlovchi va ijodiy ta’lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash samarali natijalarga erishishni ta’minlaydi. Tadqiqot ishida foydalanilgan loyihalarning asosiy maqsadlari: talabaning ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish; badiiy tafakkurni rivojlantirish; texnik ko‘nikmalarga egalik; kreativ hamkorlik va jamoaviy ish madaniyatini rivojlantirish; ta’lim jarayonini jozibadorligini ta’minlash; muammolarni hal qilish; didaktik va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish; o‘z qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazishi va zamonaviy san‘at jarayonlariga qiziqishni oshirish kabilardan iborat.

2-jadval.**Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalar**

Hamkorlikdagi badiiy loyihalar	Talabalarni bir-biri bilan hamkorlik qilish va muloqot qilishni talab qiladigan badiiy loyihalar ustida birlashtirishga undash. Bu ularning badiiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.
Eksperimental san’at loyihalari	Talabalarni turli xil san’at shakllari, materiallar va texnikalar bilan tajriba o‘tkazishga undash. Bu ularning ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, qutidan tashqarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
Badiiy tadqiqot loyihalari	Talabalarni turli rassomlarning asarlari, san’at yo‘nalishlari va san’at nazariyalarini tadqiq qilish va tahlil qilishga undash. Bu esa ularda san’atning tarixiy-nazariy mazmunini chuqurroq anglash, shuningdek, tanqidiy fikrlash va murakkab tushunchalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
Jamiyat san’ati loyihalari	Talabalarni mahalliy hamjamiyatni jalb qiladigan badiiy loyihalar ustida ishlashga undash. Bu ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini, shuningdek, san’at haqida kengroq kontekstda fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
Portfolio loyihalari	Talabalarni o‘z ishlarining portfelini yaratishga undash, bu ularga tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, vaqt o‘tishi bilan o‘zlarining badiiy rivojlanishini aks ettirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.


Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar interaktiv tajriba, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, muammoni hal qilish qobiliyatini oshirish, jamoaviy ishni rag‘batlantirish, individual yondashuv, Feedback va tahlil kabi turli afzalliklarga ega bo‘lib, talabalarni o‘qitish jarayonini samaratli va qiziqarli qilishga yordam beradi (3-jadvalga qarang).

3-jadvalda qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli fikrlashini mashg‘ulotlar vositasida rivojlantirish bugungi ta’limning innovatsion, ilmiy va amaliy talablarini o‘zida uyg‘un ifoda etadi. Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijadorlikni ta’minlashga asos bo‘ladi (2-rasmga qarang).

3-jadval.


Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishda qo‘llanilgan samarali ta’lim texnologiyalari

Integratsiyalash texnologiyalari	Talabalarning vizual va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish uchun grafik dizayn dasturlari, virtual haqiqat platformalari kabi raqamli vositalardan foydalanilmoqda. Ushbu vositalar talabalarga turli xil vositalar va texnikalarni o‘rganishga yordam beradi, shuningdek hamkorlik va tajriba o‘tkazish uchun imkoniyatlar yaratadi.
Fanlararo ta’lim	Turli fanlardan talabalar badiiy va vizual fikrlash qobiliyatlarini qo‘llashni talab qiladigan loyihalar ustida birqalikda ishlaydi. Misol uchun, tasviriy san’at dasturi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar arxitektura yoki muhandislik talabalari bilan montajlar yoki haykallar yaratish uchun o‘zaro ishlashi mumkin.
Tanqidiy fikrlash	O‘qituvchilar o‘zlarining tasviriy san’at dasturlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ta’kidlab, talabalarni san’at asarlarini tahlil qilish va baholashga, ularning mazmuni va mazmuni haqida chuqur o‘ylashga o‘rgatishmoqda. Bu talabalarga badiiy jarayonni chuqurroq tushunishga va o‘ziga xos badiiy qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi.
Tajriba almashish va o‘rganish	Tasviriy san’at bo‘yicha ko‘plab chet elda o‘qish dasturlari kabi tajribaviy o‘rganish imkoniyatlarini taklif qiladi, bu erda talabalar turli badiiy kontekstlarda amaliy tajribaga ega bo‘lishlari va dunyo sharoitida badiiy va vizual fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.



2-rasm. Qalamtasvir fanini o‘qitishda talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyiha va texnologiyalarning natijadorligi

Natijada, ta’lim berishdagi integratsion va innovatsion yondashuvlar orqali talabalarning badiiy va obrazli tafakkurini rivojlantirish ta’minlandi va uning tashkiliy-metodik tizim modeli quyidagicha aks etdi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizim modeli

3-rasmda aks etgan talabalarning badiiy va obrazli tafakkurini rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizim modeli quyidagi aniq o'quv maqsadlari, o'quv faoliyati, teskari aloqa va mulohaza, hamkorlikda o'rganish, texnologiyadan foydalanish, baholash, doimiy takomillashtirish elementlarini o'z ichiga olib, talabalarning ehtiyojlarini qondirish va kerakli ta'lim natijalariga erishishda

modelning samarali bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi. Talabalarning badiiy va majoziy tafakkurini rivojlantirish modeli izlanish, kuzatish, interpretatsiya, ifoda, mulohaza, hamkorlik, taqdimot, doimiy o‘sish bosqichlarda amalga oshirilib, ushbu bosqichlarni bajarish orqali talabalar badiiy va obrazli fikrlash qobiliyatlarini yanada ijodiy rivojlanishiga, yangiliklarni o‘rganib borish va irodali shaxs bo‘lishlariga yordam beradi.

Tadqiqot davomida erishilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, integratsion va innovatsion yondashuvlar orqali talabalarning badiiy-obrazli tafakkurini rivojlantirish ta’lim jarayoniga ehtiyojlarga asoslangan yangiliklarni olib kiradi va o‘quv muhitini innovatsion tashkil etish orqali ularni ijodiy faollashtirishga imkon yaratadi. Taklif etilgan model o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish va badiiy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonlari muvaffaqiyatini ta’minlovchi o‘qituvchilar va talabalarning ijodiy hamkorligi, zamonaviy yondashuvlarga ochiqligi va o‘quv jarayonida ijodkorlikka e’tibor berish bilan samarali ekanligi o‘z isbotini topdi.

Badiiy-obrazli tafakkuri rivojlangan bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchisi⁵ – bu san’at sohasida keng ko‘lamli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, o‘z talabalarini badiiy ifoda, ijodiy fikrlash va san’atning mohiyatini chuqur anglashga undovchi mutaxassis sifatida ijodiy fikrlash, badiiy-obrazli tafakkur, multidisiplinar bilimlar, kommunikativ qobiliyatlar, innovatsion va zamonaviy yondashuvlar, badiiy tafakkur bilan shug‘ullanish, ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, san’at tarixi va madaniyatini o‘rganish, kritiklik va tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish, mакtabda san’at madaniyatini rivojlantirish kabi xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot yuzasidan o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, tahlili va natijalari**” degan uchinchi bobida mavzuga doir olib borilgan tadqiqot ishlarining samaradorlik darjasini aniqlanib, mavzu yuzasidan tajriba-sinov ishlarining tahlili hamda olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik statistik tahlili natijalari keltirilgan.

